

G'iybatchi kim?

Опубликовано Хусен Тангриев  
Farzand tarbiyasi  
April 9, 2008

G'iybat nima? G'iybatchi kim? Tuhmat bu birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o'ylab chiqarilgan asossiz da'vo, bo'hton, ig'vo. Tuhmatchi bu birovlar ustidan tuhmat gaplar aytib tarqatib yuruvchi, bo'htonchi, ig'vegar. G'iybat bu birovni orqasidan yomonlab gapirish, fisq-fasod. G'iybatchi fisq-fasodni qo'shib-chatib, ko'pirtirib tarqatuvchi. Maqol: G'iybatchining ko'zi yo'q, tuhmatchining yuzi yo'q. «Izohli lug'at»imizdan keltirilgan izohlardan ko'rini turibdiki, g'iybatu tuhmat, g'iybatchiyu tuhmatchi hammasi ham bir.

Tuhmatning tarixi juda uzoq, odam borki bu illat ham bor. Buning kasofatidan qancha sof odamlar og'ir dardlarga chalingan, do'star dushmanga aylangan, tug'ishganlar begonalashib, oilalar, jamoalar tarqalib ketgan, qishloqlar yovlashgan, davlatlar o'rtasida urushlar kelib chiqqan...

Tuhmatchi tuhmat qilganda quyidagi jirkanch maqsadlarni ko'zlaydi: birovga qora surkab o'zini oqroq qilib ko'rsatish, ko'pchilik fikrini asosiy ishdan chetga chalg'itish, parokandalikni keltirib chiqarish, birovning tili bilan birovni urish, obro'sizlantirish, u ham anoyi emas, yeya olmasa ham to'ka olishini namoyish etish, qaysidir bir alamini olish, birovlar qiyonalishidan huzurlanish (kim bozor ko'rib, kim mozor ko'rib suyunadi), g'araz, hasad...

Avvalo, g'iybatchi axborot yig'ish uchun tevarak-atrofidan hamtovoq izlaydi. Xo'sh, falonchiboy, ko'changizda yana janjal chiqibdi, mahallada falonchini uribdilarmish, maktablar tinchlikmi, korxonangda nima gap, o'tgan kun to'uda pismadonchini rosa ichiriptilar... Ana ko'rib sizki, isbotlanmagan ig'volar, tuhmatlar oqib kelaveradi. Chunki g'urbat izlaganga g'urbat topiladi. Ikki ahil birodarning orasiga rahna nizo solish uchun unchalik ter to'kish shart emas. «To'yiga borolmayman» degan gapni «to'yiga bormayman» deb aytidi desa munosabat salbiy tomonga o'zgaradi-qo'yadi.

Tuhmatchi tuhmatni o'ziga o'xshagan g'iybatchi, sodda-samimi yoki gap-so'zining oxirini o'ylamaydigan, anqov, befahtm-befarosat yoxud yangi gap bilan boshqalarni lol qoldirishni istagan soxta shuhratparastlar orqali tarqatadi. Tuhmatchi tuhmatni ochiqdan-ochiq, tomdan tarasha tushganday tarqatishi mumkin yoki kulib, go'yo hech gap bo'limganday (holbuki ichi olov bo'lib yonib turgan bo'ladi) qiziqarli voqealar aytib turib gap orasida tuhmatni, ya'ni ignani sanchib oladi. G'iybatchining kirish so'zları: bir gap eshitdim, senga ichim achiganidan aytayapman, uyi kuygur falonchi shunday dedi, eh mening sodda dugonajonim-ey... Bu makkorona «mehribonchilik» orqasida g'iybatchi sizga ikki tomonlama hujum qiladi: ham sizni yaralaydi, ham falonchiga sizni zid qilib qo'yadi. Tuhmatni aksariyat kishilar ko'tara olmaydilar, ayniqsa, qizlar, ayollar, madaniyatli-ma'rifatli insonlar qattiq izardobga tushadilar. Bu ig'vegarga yog'day yoqadi, ba'zilar esa unchalik e'tibor qilishmaydi, xudodan topsin ilohim, deb o'z yo'lida ketishaveradi, bu esa tuhmatchiga ma'qul kelmaydi, chunki u istagan urush, to'polon bo'lmayapti-da.

Afsuski, inson tabiatan to'g'ri gapdan ko'ra noto'g'ri gapga ko'proq ishonadi. Aytaylik, falonchi falonchining uyiga yordam sifatida ikki xalta bug'doy eltid beribdi, degandan ko'ra, falonchi falonchining uyidan ikki xalta bug'doyini o'g'irlab ketibdi, deganga ko'proq ishonishadi. Yoki...

Psixologlar tahliliga ko'ra, g'iybat va tuhmatning 57 foizini sergap, xushtavoze-mahmadonalar, 26 foizini kamgap-pismiqlar tarqatar ekan. Ig'vegar-tuhmatchilar tabiatan qo'rkoq, tez

ta'sirchan, sergumon (gumon iymondan ayirar), sershushba, xayoliga kelganini orqa-oldiga qaramasdan vaysayveradigan, asabiy, qiziqqon, o'zini boshqalar nazaridan chetda qolayapman deb talmovsiraydigan, hasadgo'y kimsalardir.

Ruhshunoslarning bildirishlaricha, g'iybatchi-tuhmatchining bolaligiga nazar solsangiz achinib ketasiz. Bu oilada ota-on, qaynona-kelin, yanga, qo'shnilar bilan gap-so'zlar, ig'volar, aytdi-aytdilar, kelishmovchiliklar, nizolar iskanjasida o'tgan bo'ladi. Tengdoshlari orasida ham hayoti erkin, bolalarcha emas, siqiq, soxta kechgan.

«Ne balo kelsa tilingdan keladi», — deydi donishmandlar. To'g'riku-ya, lekin tilga yurakda bori ko'chadi. Yurak toza, samimi bo'lmos'i kerak. Qurigan daraxtning butog'ida ne ayb, hamma sabab ildizidadir. Ba'zan g'iybatchilar o'zlarini ochiqko'ngil qilib ko'rsatishlari uchun men yuragimda gap saqlamayman, nima bo'lsa tilimda, deb o'zlarini oqlamoqchi bo'ladilar. Aslida, ular sabrsiz kishilardir. Demak u yuragida gap saqlay olmadimi, o'sha gap endi boshqaning ko'nglini vayron qiladi. Bir ko'nglini vayron qilish esa Ka'bani vayron qilish bilan bab-baravar. Donolar dildan tilga ko'chadigan so'zning salmog'ini, shakarini, zaharini juda yaxshi biladilar. Sukutda savob bisyordir!

G'iybatchiga, tuhmatchiga ishonib bo'lmaydi, sizga ulardan g'iybat, tuhmat olib keldimi, biling, ularga ham sizdan g'iybat, tuhmat olib boradi. Ilon Eshmatga ham, Toshmatga ham zahar sochadi, asal emas!

Ikki yuz yildan beri yarim dunyo Pushkinning mana bu misralarini takrorlab keladi:

Ahmoq bilan o'chakishma aslo!

Bu g'iybatu tuhmatlardan zada bo'lgan daho shoirming hukmi edi! U buyuk edi, hasadgo'ylar uni ko'rishsa oromini yo'qotishar, tinmay tosh otishardi, toshni esa mevali daraxtga otadilar, saksovulga emas!

Qonunda tuhmatga jazo tayinlangan.

Dinimizda g'iybat, tuhmat qilish qattiq qoralanadi.

Xo'sh, o'zingiz yoki yaqinlaringiz, boshqalar haqidagi g'iybatu tuhmatni eshitmaslik uchun nima qilish kerak? Bu o'rinda donolik, og'ir-bosiqlik ham zarur.

G'iybatu tuhmat haqidagi maqolani o'qib turib, tavba men ham g'iybatchimanmi deb o'ylab qolsangiz kerak. O'zingizni sinab ko'ring. Agar jamoada, do'star davrasida, oilada (turmush o'rtog'ingiz, farzandlaringiz) sizga eshittirib kimnidir qoralashsa, g'iybat qilishsa, demak, siz ularda g'iybat qilishga, g'iybatni eshitishga moyillingiz bilan taassurot qoldirgansiz. Xodimlaringizdan sizga timmay «mish-mish» yetkazilaversa endi siz rahbar emas, siz ham bitta nusxasiz.

Ayni damda shuni faxr va iftixor bilan ta'kidlashni istardimki, oramizda ma'naviy olami, qalb madaniyati shu qadar yuksak kishilarimiz borki, nafaqat ularning o'zлari, ular o'tirgan davralarda ham g'iybatu ig'vo mutlaqo bo'lmaydi. Ularning madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy gurunglarini eshitib yayrab ketasiz, ko'nglingizga nur yog'iladi. Bunday insonlar oz emas, ko'p, juda ko'p!

Orifjon VOHIDOV,

Olot tumanidagi 29-maktab direktori

“Ma’rifat“dan olind